



JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA TUZILADIGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNING FAOLIYATNI TASHKIL ETISHDAGI AHAMIYATI

Fayzulloyev Bobir Jobir o'g'li
O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi kursanti

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini tashkil etishda tuziladigan normativ-huquqiy hujjatlarning tuzilish tartibi va shartlari hamda ushbu faoliyatni tashkil etishdagi ahamiyati yoritilgan. Unda jamoat xavfsizligi sohasida davlat hokimiyatining oliy organlari tomonidan qabul qilingan qonunlar, qonunosti hujjatlari o'rganilgan. Shuningdek, jamoat xavfsizligi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarning o'ziga xos jihatlari tadqiq qilingan. Maqolaning xulosa qismida jamoat xavfsizligini ta'minlashda tuziladigan normativ-huquqiy hujjatlarning ilmiy va amaliy ahamiyati, ilmiy tadqiqot muammosini hal etish bo'yicha xulosalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: jamoat xavfsizligi, normativ-huquqiy hujjat, jamoat xavfsizligini ta'minlashda tuziladigan normativ-huquqiy hujjat, hujjat loyihasi

THE SIGNIFICANCE OF REGULATORY AND LEGAL DOCUMENTS IN PROVIDING PUBLIC SECURITY IN ORGANIZING ACTIVITY

Abstract: This article describes the procedure and conditions of the regulatory legal documents drawn up in the organization of public safety activities, as well as their importance in the organization of this activity. Laws and legal documents adopted by the higher bodies of state power in the field of public safety were studied in it. Also, specific aspects of normative legal documents in the field of public safety were studied. In the concluding part of the article, the scientific and practical significance of the normative legal documents drawn up in the provision of public safety, the conclusions on solving the problem of scientific research are highlighted.

Key words: public safety, regulatory legal document, normative legal document drawn up to ensure public safety, draft document

Jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini bevosita huquqiy asos hisoblanuvchi normativ-huquqiy hujjatlarsiz tashkil etish mumkin emas, chunki ushbu faoliyatning asosiy qoidalari va shakl-shamoyili bevosita normativ-huquqiy hujjatlar orqali belgilab beriladi va takomillashtirib boriladi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tuzish jarayonini doimiy ravishda tadqiq etib borish ushbu jarayonda vujudga keladigan muammolarni aniqlab, ularga yechim topishga, normativ-huquqiy hujjat loyihasidagi bo'shliqlarni bartaraf etishga yordam beradi. Buni amalga oshirish ilmiy tadqiqot olib boruvchilarning jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatida ish yurituvda bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni doimiy ravishda o'rganib borilishi va ularning ijrosi samaradorligi bilan tanishgan holda, normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tuzishda kelgusida e'tiborga olinishi



lozim bo'lgan jihatlarni aniqlab, qayd etib borilishi orqali yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiq.

Normativ-huquqiy hujjat loyihalarining jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini to'g'ri belgilab berishi, ushbu faoliyatdan ko'zlangan asosiy maqsadga erishishga va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilab berilgan vazifalarni og'ishmay, mukammal amalga oshirishga zamin yaratadi.

Har qanday bo'shliq muayyan savollarni vujudga keltirishi, har bir xato esa inson huquqlarining buzilishiga, davlat va jamiyat manfaatlariga putur yetkazilishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatida normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlash o'ta mas'uliyatli va muhim jarayon hisoblanadi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini tashkil etishda tuziladigan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amalga kiritish tartibi bir qator qonun hujjatlari, jumladan O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-sonli farmoni bilan belgilab berilgan.

Normativ-huquqiy hujjatlar - vakolatli davlat organining belgilangan tartibda qabul qilgan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, umummajburiy tusdagi qoidalarni o'rnatuvchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi yuridik hujjati hisoblanadi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash — davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim.

Yuqoridagi ikki tushunchadan kelib chiqqan holda, jamoat xavfsizligini ta'minlashda tuziladigan normativ-huquqiy hujjat tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda tuziladigan normativ-huquqiy hujjat - vakolatli davlat organining belgilangan tartibda qabul qilgan, davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi umummajburiy tusdagi qoidalarni o'rnatuvchi, o'zgartiruvchi yoki bekor qiluvchi yuridik hujjati hisoblanadi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda tuziladigan normativ-huquqiy hujjatni yaratish nisbatan uzoq vaqt davom etadi. U ijtimoiy vaziyatni tahlil etish, uni huquqiy tartibga solish zaruriyatini anglab yetish, bo'lajak yuridik qoida haqida umumiy tasavvur hosil qilish, yuridik normani ishlab chiqish va qabul qilish kabi harakatlarni qamrab oladi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda tuziladigan normativ-huquqiy hujjat loyihagini tayyorlash vazirlik va idoralarning bir yoki bir nechta tarkibiy bo'linmalariga, ularning vazifalari va vakolatlarini hisobga olgan holda, yuklatiladi. Bunda ko'rsatilgan loyihaning tayyorlanishi uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslar doirasi, uni tayyorlash muddati, zarurat bo'lgan taqdirda esa, mazkur ishga jalb qilinadigan tashkilotlar aniqlanadi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda tuziladigan normativ-huquqiy hujjat loyihagini tayyorlashda ishlab chiquvchi:



- qonunchilikning holatini, normativ-huquqiy hujjat loyihasining jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyati bo'yicha qo'llanilish amaliyotini o'rganadi;
- jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bo'shliqlar va ziddiyatlarni, shuningdek huquqiy jihatdan tartibga solishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni, qonunchilikning samaradorligiga ta'sir etuvchi sabablar hamda shart-sharoitlarni aniqlaydi;
- jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni aniqlash nuqtayi nazaridan qonunchilikni xatlovdan o'tkazadi;
- davlat organlari va boshqa tashkilotlarning, shuningdek ayrim fuqarolarning takliflarini, ommaviy axborot vositalarining materiallarini, ilmiy va boshqa tashkilotlarning, olimlar hamda mutaxassislarning maslahatlari va tavsiyalarini, jamoatchilik fikrini aniqlashning boshqa vositalari ma'lumotlarini umumlashtiradi hamda ulardan foydalanadi;
- xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari va normalarini hisobga oladi, shuningdek, boshqa davlatlardagi jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish borasidagi tajribani o'rganadi;
- normativ-huquqiy hujjat loyihasining jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatiga taalluqli ilmiy tadqiqotlar natijalarini, ommaviy axborot vositalaridagi, Internet jahon axborot tarmog'idagi maqolalarni, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'rganadi;
- normativ-huquqiy hujjatni amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan moliyaviy-iqtisodiy xarajatlarga bo'lgan ehtiyojni, ularning o'rnini qoplash miqdorlari va manbalarini belgilaydi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda tuziladigan normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiquvchi tomonidan tayyorlash hamda tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish muddati, agar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlarida, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hujjatlarida boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, ikki oydan kam etib belgilanishi mumkin emas.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda tuziladigan normativ-huquqiy hujjat loyihasi ustidagi ish jarayonida jamoat xavfsizligini ta'minlashga oid O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari, boshqa davlatlarning qonunchilik yo'li bilan tartibga solish tajribasi va qonunchilik hujjatlari, xalqaro shartnomalar va boshqa hujjatlar o'rganiladi, tegishli qonunchilik hujjatlarini qo'llash amaliyoti, jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ilmiy adabiyotlar va ommaviy axborot vositalarining materiallari, shuningdek agar o'tkazilgan bo'lsa, ijtimoiy va boshqa tadqiqotlar ma'lumotlari tahlil qilinadi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda tuziladigan normativ-huquqiy hujjat loyihasi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tartib-taomilini murakkablashtiruvchi hamda jismoniy va yuridik shaxslar uchun javobgarlik, qo'shimcha to'lov va yig'implarni belgilovchi, ortiqcha ma'muriy va boshqa cheklashlarni nazarda tutuvchi, ularga asoslanmagan



xarajatlar yuzaga kelishiga olib keluvchi, shuningdek ruxsat berish xususiyatiga ega bo'lgan huquqiy normalar mavjudligi bo'yicha o'rganiladi.

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda tuziladigan normativ-huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, unga nisbatan yuqori yuridik kuchga ega bo'lgan boshqa qonunchilik hujjatlariga, mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning maqsad va vazifalariga, shuningdek qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiq bo'lishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'RQ-682-sonli Qonun 20.04.2021. <https://lex.uz/docs/5378966>;

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-sonli farmoni. <https://lex.uz/docs/-5749291#-5749461>;

3. "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.03.2021 yildagi PF-6196-son. <https://lex.uz/uz/docs/-5344118>;

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.04.2021 yildagi PQ-5050-son. <https://lex.uz/uz/docs/-5353841>;

5. "2022 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 23.03.2023 yildagi 121-son. <https://lex.uz/uz/docs/-6411327>;

6. "Hujjatchilikning paydo bo'lishi va tarixi" Sobirxonova Z.T. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6549997>;

7. "O'zbekiston Respublikasi jamoat tartibini saqlash organlarida kiberxavfsizlikning o'rni" Rajabov O.O. <https://cyberleninka.ru/article/n/ozbekiston-respublikasi-jamoat-tartibini-saqlash-organlarida-kiberxavfsizlikning-orni>;

8. "Normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amalga kiritish tartibi" Yusupboyeva X.T. <https://cyberleninka.ru/article/n/normativ-huquqiy-hujjatlarni-ishlab-chiqish-va-amalga-kiritish-tartib>;

9. "Mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish masalalari" Aliqulov K.U. <https://cyberleninka.ru/article/n/mahalliy-davlat-hokimiyati-organlari-normativ-huquqiy-hujjatlarini-ekspertizadan-o-tkazish-masalalari>.